



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-sentabr oylarida, birlikda)





Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **33,0** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
 ■ O'rmon xo'jaligi
 ■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 333 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 122,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,4 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 109,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 155,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 0,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) kamayishi kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




13,0
foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




18,0
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




40,0
foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilmadi




Xususiy korxonalar




0,7
foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 1 308 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 553 taga yoki 173,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 240 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 523 taga yoki 172,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 534 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 279 taga yoki 2,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 11 224 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 436 taga yoki 127,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 817 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 319 taga yoki 127,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 186 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93 taga yoki 104,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 200 tani tashkil etib, ulardan 193 tasi yoki 96,5 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 19 taga yoki 110,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- sentabr oylarida Jizzax viloyatida 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	72	77	112	179	193
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	5	17	28	29
Sanoat	56	60	66	101	106
Qurilish	3	2	3	9	9
Savdo	5	4	16	22	29
Tashish va saqlash	2	3	3	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	5	4
Axborot va aloqa	1	1	1	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	1
Boshqa turlar	2	2	5	6	8

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	193	124	69
Jizzax shahri	68	50	18
tumanlar:			
Arnasoy	7	5	2
Baxmal	8	5	3
G'allaorol	18	12	6
Sharof Rashidov	18	9	9
Do'stlik	3	2	1
Zomin	15	8	7
Zarbdor	3	2	1
Zafarobod	8	2	6
Mirzacho'l	2	-	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	23	17	6
Yangiobod	11	4	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 68 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 35,2 %), Forish tumanida 23 ta (11,9 %), G'allaorol tumanida 18 ta (9,3 %), Sharof Rashidov tumanida 18 ta (9,3 %), Zomin tumanida 15 ta (7,8 %), Yangiobod tumanida 11 ta (5,8 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 tani (4,7 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,4 %), Sharof Rashidov (15,7 %), G'allaorol (8,1 %), Zomin (8,0 %), Forish (6,9 %), Baxmal (6,1 %), Zarbdor (4,8 %), Paxtakor (4,4 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,6 %), Arnasoy (3,3 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (21,8 %), Sharof Rashidov (11,4 %), G'allaorol (10,2 %), Baxmal (7,8 %), Forish (7,2 %), Zomin (6,9 %), Zarbdor (6,8 %), Do'stlik (6,1 %), Paxtakor (5,8 %), Arnasoy (4,8 %), Zafarobod (4,4 %), Mirzacho'l (3,8 %) va Yangiobod (3,0 %) tumanlari ulushiga ega.



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (30,0 %), Paxtakor (16,5 %), G'allaorol (9,4 %), Zarbdor (9,0 %), Sharof Rashidov (6,9 %), Zafarobod (6,0 %), Mirzacho'l (5,6 %), Zomin (5,6 %), Do'stlik (4,9 %), Baxmal (2,1 %), Yangiobod (1,9 %), Arnasoy (1,5 %), va Forish (0,6 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24